

PAXTAOBOD TUMANI TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI BAHOLASH

H.A.Abdugayumov¹

1. Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston.

Correspondence: Abdugayumov Hikmatullo Ahmadjon o‘g‘li, *Andijan State University*, Andijan, Uzbekistan. **e-mail:** abduqayumovha@gmail.com

Received: 18 October 2025; **Accepted:** 12 November 2025; **Published:** 25 December 2025.

Abstract. Mazkur maqolada Paxtaobod tumani to‘qimachilik sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmini baholash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sanoat ishlab chiqarishidagi ahamiyati hamda eksport salohiyati statistik ma‘lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, Paxtaobod tumani misolida to‘qimachilik korxonalarining ishlab chiqarish hajmi, eksport-import ko‘rsatkichlari, investitsion faolligi va boshqaruv samaradorligi o‘rganilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash hamda nisbiy ko‘rsatkichlar usullaridan foydalanilgan. Maqolada 2017–2025-yillar davomida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining izchil oshgani, tayyor mahsulot ulushi kengaygani hamda eksport geografiyasi sezilarli ravishda rivojlangani qayd etilgan. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda ishlab chiqarish quvvatidan to‘liq foydalanilmayotgani, logistika tizimlarining yetarli darajada rivojlanmagani, malakali boshqaruv kadrlari yetishmasligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi kabi muammolar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijasida tarmoqda raqobatbardoshlikni oshirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash hamda klaster tizimini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur takliflar hududiy to‘qimachilik korxonalarining samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Keywords. to‘qimachilik sanoati, iqtisodiy mexanizm, boshqaruv samaradorligi, eksport salohiyati, Paxtaobod tumani.

Kirish. Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, tarmoq mamlakatda ko‘plab ish o‘rinlarini yaratib, ayniqsa ayollar bandligini ta‘minlash orqali sanoat hududlarida demografik muvozanatni saqlashga xizmat qilmoqda” [1].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda yirik va ko‘p tarmoqli to‘qimachilik sanoati shakllangan. Mazkur tarmoqning respublika “yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 4,8 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining 25 foizi hamda asosiy ishlab chiqarish fondlarining 13 foizi aynan ushbu sohaga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, mamlakat sanoatida faoliyat yuritayotgan xodimlarning qariyb 32 foizi to‘qimachilik tarmog‘ida mehnat qilmoqda.

Hozirgi kunda “O‘zbekiston Respublikasida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tizimida 410 ta to‘qimachilik korxonasi, 10 ta mashinasozlik korxonasi hamda 1330 ta tikuv-trikotaj korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, tizim tarkibida 91 ta paxta-to‘qimachilik klasteri ham mavjud bo‘lib, ular bilan birga “Sharq liboslari” dizayn markazi, reklama va marketing agentligi, “O‘zto‘qimachilik eksport” tashqi savdo kompaniyasi, paxta tolasi savdosi bilan shug‘ullanuvchi “To‘qimachilik brok” hamda to‘qimachilik korxonalarini loyihalash va qurishga ixtisoslashgan “Yengilsanoatqurilish” tashkilotlari ham o‘z faoliyatini samarali davom ettirmoqda” [9].

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Michael Porter raqobat muhitini shakllantiruvchi omillarni “raqobatning beshta kuchi” [5] modeli orqali izohlaydi. Unga ko‘ra, tarmoq ichidagi raqobat darajasi, yangi raqobatchilar kirib kelish xavfi, o‘rinbosar mahsulotlar bosimi, yetkazib beruvchilar

va iste'molchilarning bozordagi ta'siri korxonalarining raqobatbardoshligini belgilaydi. Porterning yondashuvi, ayniqsa, xalqaro bozorda faoliyat yurituvchi to'qimachilik korxonalari uchun strategik boshqaruvning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Philip Kotler esa raqobat muhitiga marketing omilining ta'siriga alohida e'tibor qaratadi. MDH olimlari tomonidan hamsanoat korxonalarida raqobat muhitini shakllantirish masalalari keng o'rganilgan. "Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda davlatning tartibga soluvchi funksiyasi va institutsional muhit muhim omil sifatida qaraladi. Xususan, to'qimachilik kabi eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda davlat tomonidan yaratilgan qulay iqtisodiy sharoitlar korxonalarining xalqaro bozordagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi"[2].

O'zbekiston Respublikasi olimlari ham to'qimachilik sanoati korxonalarini boshqaruvda raqobat muhitiga ta'sir etuvchi omillarni mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari asosida tadqiq etganlar. "Hududiy resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish orqali sanoat korxonalarining raqobat ustunligini ta'minlash mumkinligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, to'qimachilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish orqali xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan yagona zanjirni shakllantirish korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi" [2].


Tadqiqotning usullari. Ushbu maqolaning yozishda iqtisodiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, guruhlash, tenglik va mutloq absolyut va nisbiy ko'rsatichlarli statistik usullardan ukeng foydalanilgan.

Tadqiqotning natijalari va tahlili. O'zbekiston to'qimachilik sanoatini har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam xom ashyo bazasiga ega. Jumladan, paxta, jun, qorako'l terisi, neft va gaz kabi resurslar tarmoq taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatda tabiiy-iqlim sharoiti, qulay hududiy joylashuv hamda yetarli mehnat resurslari iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

2017–2030-yillarni qamrab olgan rivojlanish dasturiga muvofiq, 2026-yilgacha mamlakatda yetishtiriladigan paxta xomashyosining barchasi ichki korxonalarda to'liq qayta ishlanishi, shuningdek, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4,3 baravarga yetkazilishi strategik vazifa sifatida belgilangan.

1-rasm.


To'qimachilik tarmog'ini, sanoatda va YAIMdagi o'zgarishlari dinamikasi [4], (mlrd. so'mda).



"Iqtisodiyotni texnik va iqtisodiy jihatdan modernizatsiya qilish, sanoatning ustuvor yo'nalishlarini yanada rivojlantirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tashqi va ichki bozor talablariga mos keladigan mahsulotlar hajmini ko'paytirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli mamlakatimizda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda" [3].

2017–2025 yillar oralig'ida respublikada ip, tayyor mato, trikotaj mato va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining izchil o'sish tendensiyasi qayd etilgan (1-jadvalga qarang).

To'qimachilik sanoati salmog'i hamda o'sish sur'ati to'g'risida ma'lumot (foizda) [4]



1-jadval

To'qimachilik sanoati mahsulotlar kesmida respublikadagi ishlab chiqarish hajmining o'zgarish ko'rsatkichlari [4]

Yillar	Kalava ip (ming tonna)	Tayyor mato (mln.kv. m.)	Trikotaj gazlama (ming tonna)	Tikuv-trikotaj mahsulotlari (mln. dona)	Paypoq mahsulotlari (mln. juft)
2017	403.7	302.6	69.9	452.3	102
2018	448.9	348.9	89.9	536	135
2019	515.8	380.7	112.3	622.4	184.8
2020	592.7	415.4	140.4	722.8	252.9
2022	669.6	450.1	168.5	823.2	321
2022	703.23	472.1	175.5	865.21	325.12
2023	761.05	502.33	194.77	941.29	365.51
2024	832.78	541.02	221.9	1041.3	427.61
2025	894.73	573.7	243.4	1124.4	474.29

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2025-yillar davomida ip mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,5 barobarga, tayyor mato ishlab chiqarish 1,97 barobarga, trikotaj gazlama ishlab chiqarish 3,98 barobarga, tikuv-trikotaj mahsulotlari 2,75 barobarga, shuningdek, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 6,84 barobarga oshganligi kuzatiladi. Ushbu ko'rsatkichlar «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi tarkibidagi korxonalarining asosiy iqtisodiy faoliyatida ijobiy o'sish tendensiyasi mavjudligini ifodalaydi" [6] (2-jadvalga qarang).

	Yillar								
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Eksport									
Respublika bo'yicha	922,9	1133,6	1300,3	1427,2	1566,6	1714,5	1945,1	2148,2	2347,3
shundan:									
Andijon viloyati bo'yicha	216,8	266,2	281,9	303,5	326,7	357,1	398,4	405,1	411,2
Paxtaobod tumani	8,7	9,1	12,7	15,2	21,2	25,9	32,1	34,2	39,3
Import									

Respublika bo'yicha	79,9	138,8	178,2	213,0	254,7	287,3	302,1	310,5	313,2
shundan:									
Andijon viloyati bo'yicha	2,5	5,8	8,8	12,8	18,9	19,4	20,6	22,1	25,2
Paxtaobod tumani	0,8	1,01	1,3	2,2	3,5	3,9	4,1	4,15	4,19

Paxtaobod tumanini ham hisobga olgan holda, to'qimachilik korxonalarining texnik salohiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida mahsulot turlarining kengayishi hamda ishlab chiqarish hajmining ortishiga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib qolmoqda. Paxtaobod tumanida ham sanoat korxonalarining rivojlanishi va xomashyoni chuqur qayta ishlashga e'tibor kuchayishi mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

2017–2025-yillar davomida mamlakat eksport geografiyasi kengayib, 14 ta yangi davlat bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda esa O'zbekistonda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari 10 ming dollardan ortiq eksport hajmiga ega bo'lgan 122 ta davlatga yetkazib berilmoqda. Bu jarayonda Paxtaobod tumanida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ham eksport salohiyatini oshirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Eksport mahsulotlarining tarkibi ham sezilarli darajada diversifikatsiyalashdi. TIF TN 10 ta belgisi bo'yicha mahsulot nomenklaturasida 2017-yilda 1219 turdagi mahsulot eksport qilingan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 2874 turga yetib, 2,4 baravarga oshdi. Bu o'sish mahalliy korxonalar, jumladan Paxtaobod tumanidagi ishlab chiqarish subektlarining ham modernizatsiyalashuvi bilan bevosita bog'liqdir.

2017–2025-yillar davomida paxtadan tayyorlangan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti ham keng yo'lga qo'yildi. 2017-yilda to'qimachilik mahsulotlarining umumiy eksportdagi ulushi 8,1% tashkil etgan, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 12,5 %ga yetdi. Shu davr mobaynida 65 ta davlatga 639 turdagi to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 50 dan ortiq davlatlariga eksport qilinmoqda. Asosiy eksport bozorlari sifatida MDH mamlakatlari, xususan Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, mahsulotlar Lotin Amerikasi davlatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi, Xitoy, Singapur, Eron, Isroil hamda AQSH kabi davlatlarga ham yetkazib berilmoqda.

3-jadval

Jahon davlatlarining paxta tolasini yetishtirish ko'rsatkichi [7], ming tn

Davlatlar	Yillar				
	2017	2020	2021	2022	2025
Hindiston	6423	5639	5879	6314	6096
Xitoy	6532	4790	4953	5987	5987
AQSH	3553	2806	3738	4555	4008
Braziliya	1563	1289	1528	2007	2177
Pokiston	2308	1524	1676	1785	1742
Turkiya	697	577	697	871	980
O'zbekiston	849	827	811	840	718
Boshqalar	4032	3483	3940	4571	4285
Jami	25957	20936	23223	26932	25994

2017-2025-yillar davomida mamlakatimizda iqtisodiyotning turli sohalariga moliyalashtirish manbalari hisobiga asosiy kapitalga investisiyalar dinamikasi o'sib borgan. Biroq uning tarkibida to'qimachilik sanoatining ulushi 2017-yilda 715851,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 9770459 mlrd. so'mga o'zgargan (3-rasmga qarang).

To'qimachilik sanoatiga investitsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri jalb etilish dinamikasi [4]



Paxtaobod tumani misolida to'qimachilik sohasida ham bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Xususan, ayrim zamonaviy tikuvchilik va bo'yash korxonalarining ishlab chiqarish quvvati to'liq ishga solinmagan, rentabellik darajasi past bo'lib qolmoqda hamda ilg'or texnologiyalardan foydalanish darajasi yetarli emasligi sezilmoqda. Shuningdek, Paxtaobod tumanida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi va ichki bozorlarga yetkazib berishda logistika tizimlarining to'liq rivojlanmagani, to'qimachilik mahsulotlarini sertifikatlashtirish jarayonidagi ayrim muammolar yirik eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Yana bir muhim jihat shuki, tarmoqda malakali boshqaruv kadrlari yetishmovchiligi mavjud bo'lib, ayrim rahbar xodimlarning boshqaruv kompetensiyalari past darajada ekanligi, xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiya tizimining sustligi korxonalarining samarali faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda.

2030-yilgacha bo'lgan istiqbolda tarmoq korxonalarini oldiga ishlab chiqarish hajmini 5,5 barabarga oshirib, uni 19,5 mlrd so'm darajasiga yetkazish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda mamlakat to'qimachilik sanoatining tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish asosiy strategik yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmogda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun tarmoq korxonalarida tayyor to'qimachilik hamda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda zarur bo'lgan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar zaxirasini shakllantirish, shuningdek, xom ashyo balansini chuqur tahlil qilish va to'g'ri baholash talab etiladi (4-jadvalga muvofiq).

4-jadval

2017–2025-yillar davomida to'qimachilik va trikotaj-tikuvchilik sanoati korxonalarini rivojlantirishda xomashyo balansi hamda yarim tayyor mahsulot tarkibini optimallashtirish [4]

№	Mahsulot turi	birligi	2017	2018	2019	2021	2025	Prognoz	
								2026	2030
1.	Paxta tolasi	ming tn.	411.2	522.1	714.5	886.4	981.4	1105.9	1117.6
2.	Kimyoviy tolalar va iplar	ming tn.	88.5	103.8	194.4	297.3	341.0	394.5	552.3
3.	Paxta kalava ipi	ming tn.	101.4	132.8	182.5	226.3	305.1	425.8	530.0
4.	Tayyor gazlama	ming tn.	286.9	344.7	372.5	432.7	809.5	1212.8	1723.3
5.	Trikotaj matosi	ming tn.	68.7	93.6	145.7	234.4	309.5	419.4	541.2
6.	To'qimachilik galantereyasi	mln. dona	574	808	851	1138	1279	3269	4643.1

2017-yilda umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmida paxta kalava ipining ulushi 61 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 38,5 foizgacha kamaygan. Istiqbolda esa

2030-yilgacha uni 26,7 foiz darajasiga tushirish rejalashtirilmoqda. Bu o'zgarishlarning asosiy maqsadi paxta kalava ipini eksportga yo'naltirishni emas, balki uni chuqur qayta ishlash orqali tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda to'liq va samarali foydalanishni ta'minlashdan iboratdir.

"Tarmoq korxonalarida yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. 2017-yilda ushbu turdagi mahsulotlarning jami ishlab chiqarishdagi ulushi 15,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 34 foizga yetgani qayd etilgan. Bu holat tarmoqda tayyor mahsulotlar ulushining izchil ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, respublika ichki bozorining to'qimachilik mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi ham sezilarli darajada oshgan. Tayyor gazlamalar bo'yicha bu ko'rsatkich 71,2 foizdan 137,6 foizga, tikuv-trikotaj mahsulotlari bo'yicha 67,3 foizdan 137,0 foizga, paypoq mahsulotlari bo'yicha esa 55,6 foizdan 147,4 foizga yetgan. Respublika to'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturi doirasida tayyor gazlamalar ishlab chiqarish hajmi 307,5 mln kv.m dan 812,5 mln kv.m gacha, tikuv-trikotaj mahsulotlari 342,2 mln donadan 712,2 mln donagacha, paypoq mahsulotlari esa 72,9 mln juftdan 229,9 mln juftga oshgan"[6].

Respublikada ichki bozorni ip kalava bilan ta'minlash jarayoni 2018-2025-yillar davomida ijobiy dinamikani namoyon etgan. Ushbu davrda kalava ip ishlab chiqarish hajmi 1,9 barobarga ortgan. Shu bilan birga, qayta ishlashga yo'naltirilgan ip hajmi 2,4 barobarga oshgan bo'lsa, eksport yo'nalishidagi hajm 1,17 barobarga qisqargan. Ichki bozorda realizatsiya qilingan ip hajmi 1,5 barobarga ko'paygan, ombor zaxiralari esa 1,4 barobarga oshgan. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ishlab chiqarilgan kalava ipning 60 foizi mamlakat ichida to'qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda qayta ishlangan, 20 foizi eksportga yo'naltirilgan, 17 foizi esa ichki savdo tarmog'ida realizatsiya qilingan.

Xulosa. Bozor konyunkturasidagi tezkor o'zgarishlarga moslasha oladigan kichik va moslashuvchan tikuvchilik korxonalarini tashkil etishni rag'batlantirish respublika to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv nisbatan kichik investitsiyalar asosida ko'plab ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish imkonini berib, ayniqsa ayollar bandligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, samaradorligi yuqori bo'lgan tikuvchilik sanoatini rivojlantirish butlovchi materiallar, aksessuarlar va furnitura ishlab chiqarish kabi yondosh tarmoqlarning shakllanishiga ham turtki beradi. To'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini ta'minlashda texnologik modernizatsiya muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu jarayonni cheklab turgan asosiy omillardan biri - sanoatda qo'llanilayotgan dastgohlar, ularning ehtiyot qismlari hamda tez eskiruvchi inventarlarning yetarli darajada mamlakat ichida ishlab chiqarilmasligidir. Bu esa importga qaramlikni saqlab qolmoqda va ishlab chiqarish tannarxiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini uchun zarur bo'lgan butlovchi materiallar, aksessuarlar, furnituralar hamda uskunalarning ehtiyot qismlarini import qilishda ma'lum imtiyozlarni saqlab qolish maqsadga muvofiqdir. Chunki raqobatbardosh ishlab chiqarishni shakllantirish, mavjud texnologiyalarni doimiy yangilab borish va mahalliy mashinasozlik bazasi to'liq rivojlanguniga qadar ushbu ehtiyojlar dolzarbligicha qoladi.

To'qimachilik sanoati korxonalarini faoliyat ko'rsatkichlarini iqtisodiy-statistik tahlil qilish natijalari bir qator muhim tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi. Xususan, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hamda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan mutanosib ravishda to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish hajmi ham barqaror ravishda oshib borgan. Shu bilan birga, tarmoqda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning qiymat ifodasi ortib borayotgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'ati so'nggi 10 yil davomida 18,3 foizdan 11,9 foizgacha pasayganligi kuzatiladi. Xomashyoni qayta ishlashdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi, o'zaro integratsiyalashgan va kooperatsiyalashgan ishlab chiqarish zanjirlarini birlashtiradigan klaster tipidagi xolding tuzilmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bunday xoldinglarning tarmoqni monopollashtirib yuborishining oldini olish, aksincha ularni ko'plab subektlar shaklida tashkil etish orqali sog'lom raqobat muhitini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] Текстильная промышленность: основные результаты реализации Стратегии развития Узбекистана в период 2017-2026 годы | Институт макроэкономических и региональных исследований <https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/textile>

[2] Тўлаганов А.Х. Саноатни ҳудудий ташкил этиш ва ривожлантириш омиллари. Иқтисодий ўсиш ва иқтисодиётни мувозанатли ривожлантиришнинг муҳим омиллари. Республика илмий - амалий конференцияси материаллари тўплами.-Тошкент. 2026. - 50 б.

[3] Махкамов Баходур Бурханович-пути и механизмы организации инновационного производства на предприятиях текстильной и швейной промышленности республики таджикистан

[4] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

[5] [portal.guldu.uz-Mint aqaviy iqtisodiyot.pdf](http://portal.guldu.uz-Mint-aqaviy-iqtisodiyot.pdf) <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-16757.pdf>.

[6] ASHUROVALISHERANVARJONOVICH, TO‘QIMACHILIKKORXONALARIDAKORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH, 08.00.13 – Menejment, Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, AVTOREFERATI, <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000014/fk5x2yCnu4iBWFN.pdf>

[7] AQSH qishloq xo‘jaligi vazirligi sayti ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

[8] “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi. ВКР_Абдуллаев Ж._833_25.05.2025